



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA JAMOATCHILIK NAZORATI TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ikromov Xabibullo Boqiyevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik
litsey o'qituvchisi istefodagi podpolkovnik*

Ibragimov Xasan Ismailovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik
litsey o'qituvchisi istefodagi podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada korrupsiya ta'rifi, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, korrupsiyaga karshi kurashishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati, bu borada jamoatchilik nazorati sub'ektilarining vakolatlari, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari to'g'risida nazariy fikrlar bildirilgan, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatida korrupsiyaga karshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kengaytirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Tayanch suzlar: ichki ishlar organlari, korrupsiya, korrupsiyaga karshi kurashish, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik nazorati sub'ektlari.

"Korrupsiyaga qarshi butun jamoatchilik bilan kurashishimiz zarur"

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat MIRZIYOYEV



Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini va samarasini susaytirishi mumkin bo'lgan illat hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalg qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz", deb bejizga ta'kidlanmagan. [1].

Qonun hujjalarda korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir».

Xalq tilida soddagina qilib - poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini bilishimiz lozim bo'ladi.

Korrupsiya nima o'zi? - Qonun hujjalarda korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy

Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foya olishidir.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida *to'rtta* omilni ko'rsatadilar.



Birinchisi - iqtisodiy sabablar. Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma’muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqeい baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yo ruxsat berish, yo taqiqlash vakolati poraxo‘rlikka zamin yaratadi. Shu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbilarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi - huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va poraxo‘rlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi - institutsional sabablar bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan holiligi kiradi.

To‘rtinchisi - ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma’naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11 fevral kuni korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda, korrupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to‘sqlilardan biri ekanligi, tahlillarga ko‘ra, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o‘rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltirishini aytib o‘tdi va korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan sohalarda bu illatdan qutulish bo‘yicha dastur ishlab chiqib, ijrosini tashkil etish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi [3], jumladan;



-mamlakatimiz ham muammodan xalos bo‘lmajanligi, dunyodagi korrupsiya darajasini o‘rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O’zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali bu illat barham topmaganligini;

-yurtdoshlarimizning fikricha, sog‘liqni saqlash, ta’lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlari, kommunal xizmat sohalarida, shuningdek, fuqarolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqaganligi;

-misol uchun, tahlillarga ko‘ra, sog‘liqni saqlash tizimidagi xarajatlarning 25-30 foizi samarasiz sarflanayotganligi, ko‘plab sohalarda davlat xaridlarini amalga oshirish tizimi ochiq-oshkora emasligi takidlab o‘tildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan Adliya vazirligi va Bosh prokuraturaga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda vazirlik, kompaniya va hokimliklarda ichki korrupsiyaga qarshi choralar ni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi “komplayens nazorat” tizimini joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, davlat xizmatchilari mol-mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tiziminining barcha tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqib, amaliyotga kiritish shartligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra barvaqt oldini olishga o‘tish kerakligini ta’kidlab, unga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiyo yo‘li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir. Bunda eng asosiyo e’tiborni ishga olish, davlat xaridlari, ruxsatnoma va litsenziyalar berish kabi jarayonlarda ochiq-oshkorlikni ta’minlashga qaratish lozimdir.

Ushbu illatga qarshi kurashishdagi yana bir muhim vositalardan biri – jamoatchilik nazoratidir.



O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni[2]ning 3-moddasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub'ektlar sifatida:

- O'zbekiston Respublikasi fukarolari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ruyxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari;

Bugungi kunda yurtimizda 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning o'rni va faolligi sezilmayapti. Chunki bu tashkilotlar manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat bilan ko'prik vazifasini bajaruvchi yaxlit tizim yo'q.

Hozirda jamoatchilik bilan ishslash tizimi joylarda va sohalarda xalqimizni qiyayotgan masalalarni davlat miqyosiga olib chiqib, hal qilishda natija ko'rsata olmayapti. Ko'p nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati rasmiyatichilikdan iborat bo'lib qolmoqda.

“Mahalla”, “Nuroniy”, Xotin-qizlar qo'mitasi kabi yirik birlashmalardan xalqimiz qanday naf ko'ryapti, ular hayotimizdagi qaysi o'tkir masalani ko'tarib, hal qilishga erishdi, degan savolga, afsuski, ijobiy javob yo'q.

Shu bois Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifini ham bildirgan edi, shunga ko'ra;

-jamoatchilik palatasi aholi fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi, ularning yechimini topish bo'yicha davlat idoralari oldiga aniq vazifalarni qo'yishi, “jamoatchilik eshituvi”, “jamoatchilik monitoringi”, “jamoatchilik ekspertizasi”, “jamoatchilik tashabbusi” kabi ta'sirchan nazorat shakllarini hayotga tatbiq etishi;

-nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat idoralari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini jonlantirishi, ularga har tomonlama uslubiy ko'mak berishi;



-jamoatchilik palatasining tashkiliy-huquqiy asosini yaratish, shuningdek, fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

-Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini takomillashtirish, jamiyat hayotiga oid muammolarni o'rganish va samarali hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho'qqining o'tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

Hozirgi kunda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan keng miqyosda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlardan biri 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunidir. Mazkur Qonun bilan jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlardan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar jamiyat farovonligini ta'minlashga, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etishning konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi

Ta'kidlash lozimki, davlatimiz Rahbari o'z ma'ruzasida yana bir bor Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar ortga qaytmas tus olganini qat'iy bildirdi. Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilanganini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030 yilgacha mo'ljalangan milliy strategiya ishlab chiqish to'g'risida bildirilgan taklifi bo'ldi.



Hozirda O'zbekiston ushbu yo'nalishda 15 ta xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. 20 dan ortiq xorijiy davlatlar vakolatli idoralari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

Yakunda shuni alohida ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurash bu uzoq istiqbolga mo'ljallangan va muayyan jamiyatda yashovchi har bir shaxsdan katta mas'uliyat talab etadigan jarayondir. Zero, mamlakatimiz Rahbari o'z ma'rzasida ta'kidlaganidek, «korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir».

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni.
3. "O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalari to'plami", 2018 yil 16 aprel, 15-son, 304-modda (Law of the Republic of Uzbekistan "On the legal protection of breeding achievements" of April 16, 2018, article 304.)

Internet manbalari:

1. <http://lex.uz>
2. <https://prokuratura.uz/>
3. <https://www.opengovpartnership.org>
4. <http://www.oecd.org/corruption/acn>
5. <https://www.minjust.uz/uz/>
6. <https://meningfikrim.uz/uz>
7. <https://regulation.gov.uz/uz/site/#>